

Kulatova Svetlana Yuldashevna,

Qarshi davlar universiteti "Psixologiya" kafedrasida
dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

DESTRUKTIV AXBOROTLAR VA SHAXS SIFATLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION MUNOSABATLAR

UDK 152.26:157.2

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_1_5](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_1_5)

KULATOVA S.YU. DESTRUKTIV AXBOROTLAR VA SHAXS SIFATLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION MUNOSABATLAR

Ushbu maqolada destruktiv axborotlar va shaxs sifatleri o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlar bo'yicha amaliy natijalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, psixologik manipulyatsiya va ga'yriijtimoiy xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi destruktiv axborotlar doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Destruktiv axborotlarni tanib olish, baholash va ularga nisbatan sog'lom munosabat shakllantirish tahlili keltirilgan. Destruktiv axborotga ochiqlik va sezuvchanlikni oshiruvchi omillar keltirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: shaxs, destruktiv axborotlar, korrelyatsion munosabatlar, psixologik manipulyatsiya, ga'yriijtimoiy xatti-harakatlar, virtual olam, psixologik xavfsizlik, axborotga ochiqlik, sezuvchanlik.

КУЛАТОВА С.Ю. КОРРЕЛЯЦИОННЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИЕЙ И КАЧЕСТВАМИ ЛИЧНОСТИ

В данной статье представлены практические результаты по соотношению деструктивной информации и качеств личности. Также приводится информация о деструктивной информации, пропагандирующей психологические манипуляции и антиобщественное поведение. Представлен анализ распознавания, оценки деструктивной информации и формирования здорового отношения к ней. Перечислены факторы, повышающие открытость и восприимчивость к деструктивной информации.

Ключевые слова и понятия: личность, деструктивная информация, корреляционные отношения, психологическая манипуляция, антиобщественное поведение, виртуальный мир, психологическая безопасность, информационная открытость, восприимчивость.

KULATOVA S.YU. CORRELATION RELATIONSHIP BETWEEN DESTRUCTIVE INFORMATION AND PERSONALITY QUALITIES

This article brings practical results on correlative relationships between destructive information and personality qualities. Also cited are data on psychological manipulation and destructive information promoting anti-social behavior. An analysis of the recognition, evaluation and formation of a healthy attitude towards destructive information is presented. Factors that increase openness and sensitivity to destructive information are cited.

Key words and concepts: personality, destructive information, correlational relationships, psychological manipulation, social behavior, virtual world, psychological security, openness to information, sensitivity.

Kirish. XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari misli ko'rilmagan sur'atlarda rivojlanayotgan davr bo'lib, bu jarayon inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'smirlar uchun ushbu texnologik muhit nafaqat o'rganish va mulot qilish vositasi, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy mavqeini shakllanishi va emotsional ehtiyojlarni qondirish maydoniga aylangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda o'smirlar internetdan foydalanishda kuniga o'rtacha 4-6 soatni ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar va o'yinlarda o'tkazmoqda. Bu esa ularni turli xil axborotlar oqimiga muttasil ta'sirchan qilib qo'yimoqda¹.

Biroq ushbu axborotlar orasida inson psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, zo'ravonlik, o'z joniga qasd qilish, ekstremistik g'oyalar, giyohvandlik, tajovuzkorlik, psixologik manipulyatsiya va ga'yriijtimoiy xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi destruktiv axborotlar alohida xavf solmoqda. Bunday kontentlar odatda o'smirlar ongida ijobiy tasavvur paydo qiluvchi, sarguzasht sifatida qabul qilinadi va real hayotdagi muammolardan qochish vositasi sifatida idrok etiladi. Bu esa o'z navbatida o'smirlarning emotsional barqarorligi, qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi. Destruktiv axborotlarni tanib olish, baholash va ularga nisbatan sog'lom munosabat shakllantirish aynan shaxsning ichki resurslari va shaxslilik sifatleri bilan bevosita bog'liq. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, shaxsning ayrim sifatleri (masalan, o'ziga ishonch, o'zini boshqarish, o'zini qadrlash, ichki barqarorlik) destruktiv axborotga nisbatan psixologik immunitet sifatida harakat qiladi. Aksincha, psixologik beqarorlik, past o'zini qadrlash, irratsional fikrlash va ichki ziddiyatlar esa bu kabi axborotlarga beriluvchanlikni kuchaytiradi. Destruktiv axborotga psixologik qaramlik o'smirlar va yoshlar orasida ijtimoiy ajralish, akademik pasayish, emotsional beqarorlik, psixik muvozanatning buzilishi, xavotir, depressiya, hattoki suiqasdga moyillik kabi vaziyatlar bilan yakunlanishi mumkin. Bu vaziyatlarning oldini olishda shaxsning psixologik strukturasi, ichki qadriyatleri va emotsional barqarorlik darajasi asosiy rol o'ynaydi. Demak, shaxslilik sifatlerini tahlil qilish – salbiy axborot oqimlarining ta'siriga qarshi samarali psixoprofilaktik choralar ishlab chiqishda zaru-

ratga aylangan. Shu boisdan o'smirlarda destruktiv axborotlarga qaramlik muammosini o'rganishda uning shaxslilik sifatleri bilan o'zaro bog'liq jihatlarga ham e'tiborimizni qaratdik.

Maqsad. Destruktiv axborotni qabul qilishga moyillikni profilaktika qilish uchun psixologik determinant sifatida o'smir shaxsida mustaqil fikrlash, o'ziga bo'lgan ishonch, distressga qarshilik ko'rsatish, o'z-o'zini anglash kabi determinantlarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanmoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan profilaktik psixokorreksion dasturlar, ijtimoiy-psixologik treninglar, axborot xavfsizligi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari aynan o'smirlar orasida destruktiv axborotlarni tanqidiy baholay oladigan shaxsiy sifatlerini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyektini sifatida Buxoro viloyati o'smirlari, Qashqadaryo viloyati o'smirlari umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil oluvchi yuqori sinf o'smir yoshlari tanlab olindi. Jami 292 nafar respondentlardan iborat.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tadqiqot ishini olib borish davomida suhbat, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, K.O.Yakunin tomonidan ishlab chiqilgan "Destruktiv axborot ta'sirini baholash" testi, R.B.Kettellning "Shaxsning 16 omilli xususiyatlarini baholash"² so'rovnomalariidan foydalanilgan. Shuningdek, matematik-statistik usullar parametrik va noparametrik mezonlar hamda Ch.Spermanning korrelyatsion koeffitsienti mezonlaridan foydalanilgan.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. 2020 yilda Zhang va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar mazmuniga ko'ra, 4 mln post va 18 mln izoh tahlil qilib chiqilgan. Konspirativ postlar "branching" usulida ko'p darajali, uzoq davomli, hissiy jihatdan boy (qo'rqinch, hasad va boshqalar) tarqalishiga olib kelgan. Tsenzura-rasmiy ilmiy yangiliklarga qaraganda ko'proq viral bo'ladi; AUC ~90 % bilan sun'iy intellekt modeli aniq ajratishini ko'rsatib bergan³.

2014–2024 yillar davrida e'lon qilingan 23 ta destruktiv axborotlarga oid ilmiy ishni PRISMA metodologiyasiga asoslanib tahlil qilingan va «destruktiv yolg'on axborot» ni yaratish hamda tarqatish orqasidagi asosiy **psixologik motivlar**

² Васильева И.А., Пашенко Е.И., Петрова Н.Н., Осипова Е.М. Психологические факторы компьютерной тревожности // Вопросы психологии. – 2004. – №5. С. 62.

³ Y. Zhang, L. Wang, J. J. H. Zhu, X. Wang, "Conspiracy vs science: A large-scale analysis of online discussion cascades," 2006.00765, 2020; 28 p.

¹ https://www.unicef.org/adolescence/humanitarian-action?utm_source

aniqlangan. Asosan beshta keng tema ajratilgan: **shaxsiy faktorlar** (norozi shaxslar, shaxsiy issiqlik, tashqi tasdiqlash istagi), **bilimsizlik/egri tushunchalar**, **ijtimoiy omillar** (ijtimoiy tasdiqlov, guruh identifikatsiyasi), **biologik jarayonlar** (masalan, neyrobiologik stress va emotsional reaksiyalar), va **kognitiv jarayonlar**. Tadqiqotda, masalan, «intrinsik motivlar» – ma'lumot olish, zavqlanish va emotsional qoniqish uchun “yolg'on axborot” tarqatish; «ekstrinsik motivlar» esa – o'zini ko'rsatish, siyosiy yoki konspirografik ongdan kelib chiqishini namoyon etgan¹.

Wang 2023 yilda ijtimoiy tarmoqlarda «doomscrolling» – ya'ni salbiy yangiliklar va kontentni uzluksiz ko'rish – insonlarning psixologik farovonligiga qanday ta'sir qilishini o'rgandi. Tadqiqotda 500 dan ortiq ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ishtirok etib, ular orasida har xil yosh va ijtimoiy fon vakillari tanlangan. Doomscrolling ya'ni salbiy yangiliklar va kontentni uzluksiz ko'rish, nafaqat hozirgi ruhiy holatni yomonlashtiradi, balki ongdagi stress va farovonlikni ham yomonlashtiradi².

Jr. Kesner 2025-yil iyun oyida Mental Health jurnalida nashr etilgan maqola Ladislav Kesner Jr., Veronika Jurickova, Dominika Grygarova va Jiri Horajek tomonidan yozilgan bo'lib, unda global ekologik va ijtimoiy-siyosiy stress manbalari (masalan, urushlar, pandemiyalar, iqlim o'zgarishi), ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan negativ xabarlar orqali inson ongida yuzaga keladigan subyektiv noaniqlik muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Mualliflar bu noaniqlik stress, xavotir va ruhiy salomatlik buzilishlariga sabab bo'lishi, o'z navbatida mediadan ko'proq foydalanishga – va yakunda o'ziga-o'zi takrorlanadigan, zararli vosita aylanishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ushbu jadallik, COVID-19 pandemiyasi davrida ham qayta tasdiqlangan³.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Destruktiv axborotga sezgirlik – bu shaxsning axborotga nisbatan tanqidiy emotsional reaksiyasi bo'lib, u stress, xavotir, shubha yoki depressiv fikrlar orqali ifodalangani. Sezgirlik, albatta, axborotga nisbatan hushy-

orlikni bildirsada-da, bu hushyorlik doimiy emotsional notinchlik bilan birga kechsa, psixologik salomatlik uchun xavfli bo'lishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda bu sezgirlik passiv befarqlikka yoki affektiv portlashlarga olib keladi.

Asosiy qism. Zamonaviy axborot oqimi o'smirlarning emotsional va psixologik barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Destruktiv axborotga sezgirlik shaxsning axborotga nisbatan hushyorligini bildirsada-da, bu sezuvchanlik bilan birga uning qaramlikka aylanish ehtimoli ham mavjud. Axborotga nisbatan haddan ziyod reaktivlik o'smirlar ichki muvozanatdan chiqarib, uni tashqi axborotdan qoniqish izlovchi vaziyatga olib keladi. Shaxsiy “Men” obrazining barqarorligi destruktiv axborotlarga qarshi psixologik immunitet sifatida namoyon bo'ladi. O'zini qadrlovchi, o'z-o'zini boshqaruvchi va o'zini anglagan o'smirlar destruktiv axborotga nisbatan hushyorlikni saqlab qolishadi. Bunday shaxslar o'z emotsiyalarini nazorat qilish, zarur hollarda esa axborotdan o'zini chetga olish strategiyalarini ishlab chiqishga qodir bo'ladi. Shaxsning fikrlash tizimidagi irratsional ustanovkalar – xususan, fojealashtirish va tashqi baholarga haddan ortiq bog'liqlik – uning destruktiv axborotga bo'lgan qaramligini kuchaytiruvchi omillardir. Bu ustanovkalar o'smirlar real voqealarni hissiy buzilish orqali talqin qilishga undaydi, natijada u tashqi axborotni o'z psixologik ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida qabul qiladi. Destruktiv axborotlarning salbiy ta'siriga qarshi kurashish uchun nafaqat taqiq va cheklovlar, balki ichki psixologik tayanchlarni mustahkamlovchi metodlar zarur. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, irratsional fikrlashni aniqlash, emotsional muvozanatni tiklash va ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'smirlar destruktiv axborotga nisbatan sog'lom munosabatda bo'lishi mumkin.

Natijalar tahliliga ko'ra (1-jadval), “Muloqot” shkalasi destruktiv axborotlarga sezgirlik ($r = 0,276$; $p < 0,05$) bilan ijobiy va statistik jihatdan ishonchli bog'liqlik namoyon qilgan. Bu shuni anglatadiki, ijtimoiy faolligi yuqori, suhbatga ochiq, tashqi axborotlar bilan faol muloqot qiluvchi o'smirlar destruktiv axborotlarga nisbatan sezuvchan bo'lishadi. Ular axborotni faol qabul qilganliklari sababli zararli ma'lumotlarning ruhiy ta'sir doirasiga tushib qolish ehtimoli ortadi. Muloqot kuchli bo'lsa-da, bu holat axborotni tanqidiy baholash malakasi bilan birga rivojlanmasa, sezgirlik xavfga aylanadi.

“Hukmronlikka intilish” shkalasi esa destruktiv axborotlarga sezgirlik bilan salbiy korrelyatsiya ($r =$

¹ “Psychological factors contributing to the creation and dissemination of fake news...”, BMC Psychology, 2024;12:105, pp. 1-24.

² Wang. “Doomscrolling and mental well-being in social media users: A serial mediation model”, J. Community Psychology, 2023;51(4):820-837.

³ Kesner Jr et al., “Impact of Media-Induced Uncertainty on Mental Health,” JMIR Mental Health, 2025; vol 12:e68640; pp. 1-20.

1-jadval.R.B. Kettelning "16-ta omilli shaxsni o'rganish so'rovnomasi" natijalari bilan K.O.Yakuninning "Destruktiv axborot ta'sirini baholash testi" natijalarining o'zaro aloqadorlik ko'rsatkichlari tahlili (Sperman mezoni asosida)

Shkalalar	Destruktiv axborotlarga sezgirlik
Muloqot	0,276*
Hukmronlikka intilish	-0,311*
Ijtimoiy yetuklik	0,198*
Mustaqillik	0,312*
O'zini nazorat qilish	-0,171*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

-0,311; $p < 0,05$) ko'rsatgan. Bu shuni anglatadiki, boshqalar ustidan nazorat o'rnatishga intiluvchi, yetakchilik xususiyatlariga ega shaxslar destruktiv axborotning salbiy ta'siriga kamroq sezgirlik bildiradilar. Ehtimol, ular mustaqil fikr yuritish, tashqi ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish va o'z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatiga ega. Bu esa ularda axborotga nisbatan ongli immunitet shakllanganini ko'rsatadi.

"Ijtimoiy yetuklik" shkalasi destruktiv axborotga sezgirlik bilan ijobiy bog'liqlik ($r = 0,198$; $p < 0,05$) bildirgan. Bu holat ijtimoiy jihatdan yetuk, munosabatlarda samimiy va mas'uliyatli bo'lgan shaxslar axborot oqimlariga e'tiborli bo'lishlarini, lekin ayni paytda ularga ta'sirchanlik darajasi ham yuqori bo'lishi mumkinligini bildiradi. Ya'ni, ular ijtimoiy masalalarga befarq bo'lmaganlari sababli destruktiv axborotga sezilarli ta'sirlanish ehtimoliga ega.

"Mustaqillik" shkalasi destruktiv axborotga sezgirlik bilan ijobiy va ishonchli bog'liqlik ($r = 0,312$; $p < 0,05$) ko'rsatgan. Bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya shuni anglatadiki, mustaqil fikrlovchi, o'z qarorlarini boshqalarga tayanmasdan qabul qiladigan shaxslar ham destruktiv axborotga befarq emas, balki sezgir bo'lishadi. Biroq bu holat mustaqil shaxslarning har qanday axborotni ongli tahlil qilish, zararli xulosalardan saqlanish imkoniyatiga ega ekanligi bilan farqlanadi. Sezgirlik bu yerda zaiplik emas, balki tanqidiy diqqatning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

"O'zini nazorat qilish" shkalasi bilan sezgirlik o'rtasida salbiy bog'liqlik ($r = -0,171$; $p < 0,05$) aniqlangan. Bu esa o'zini tutib tura oladigan, hissiy impulsini nazorat qiluvchi shaxslarning destruktiv axborotga kamroq reaktivlik bildirishini anglatadi. Bunday shaxslar axborot oqimi bosimida bo'lsa ham, uni darhol qabul qilmaydi, balki saralab, tahlil qilib yondashadi. Bu holat o'zini boshqara olish qobiliyati media savodxonlik va axborotga nisbatan ongli immunitetni kuchaytirishini ko'rsatadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Muloqot, ijtimoiy yetuklik va mustaqillik – destruktiv axborotga ochiqlik

va sezuvchanlikni oshiruvchi omillar bo'lib xizmat qiladi. Hukmronlikka intilish va o'zini nazorat qilish – axborotga qarshi psixologik barqarorlikni ifodalaydi.

Natijalardan ko'rinadiki (2-jadval), «destruktiv axborotga sezgirlik» shkalasi bilan befarqlik ($r = -0,440$; $p < 0,01$) salbiy va statistik jihatdan ishonchli korrelyatsiyaga ega. Bu shuni anglatadiki, destruktiv axborotga nisbatan yuqori sezgirlikka ega bo'lgan o'smirlar ushbu axborotga befarq emas, balki uni sezadi, unga reaksiya bildiradi, ya'ni ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Aksincha, befarqlik darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar bunday salbiy axborotga sezgir emas, uni inkor etadi yoki unga psixologik jihatdan loqayd munosabat bildiradi. Ushbu salbiy bog'liqlik axborotga emotsional javob berish darajasi bilan passivlik o'rtasidagi psixologik tafovutni ko'rsatadi.

Destruktiv axborotga sezgirlik bilan moyillik ($r = 0,313$; $p < 0,05$) o'rtasida esa ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud. Bu esa sezgirlik kuchaygan sari o'smirlar ushbu axborotga nafaqat reaksiya bildirayotganini, balki unga qiziqish, jalb etilish yoki uni kuzatib borishga moyil bo'lib borayotganini anglatadi. Bunday vaziyatlarda yoshlar sezgan xavfni yo'qotish emas, balki undan ma'lum ma'noda emotsional manfaat olish, hayajon, yangilik yoki ijtimoiy moslashuv nuqtayi nazaridan unga yaqinlashish vaziyatlarini ko'rsatadi. Bu esa axborotga ehtiyotkor yondashuv bilan birga xavfli jalb etilish o'rtasidagi nozik muvozanatni bildiradi. Destruktiv axborotga sezgirlik bilan qaramlik ($r = 0,238$; $p < 0,05$) o'rtasida ham ijobiy va ishonchli korrelyatsiya mavjud. Bu esa shuni bildiradiki, sezgirlik darajasi ortgan sari o'smirlar ushbu axborotga shunchaki befarq emas, balki unga qaram bo'lib qolish xavfiga ham duch kelmoqdalar. Bunda destruktiv axborot manbalariga (televizor, internet, ijtimoiy tarmoqlar) psixologik bog'liqlik ortadi, bu esa uzoq muddatli emotsional va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

2-jadval. Respondentlarning I.Salovyovaning "Destruktiv axborotlarga qaramlik" testi natijalari bilan K.O.Yakuninning "Destruktiv axborot ta'sirini baholash testi" natijalarining o'zaro aloqadorlik ko'rsatkichlari tahlili (Sperman mezonini asosida)

Shkalalar	Destruktiv axborotlarga sezgirlik
Destruktiv axborotlarga befarqlik	-0,440**
Destruktiv axborotlarga moyillik	0,313*
Destruktiv axborotlarga qaramlik	0,238*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Xulosalar.

1. Shaxsning ijtimoiy ochiqligi va tashqi axborot bilan faol muloqoti destruktiv axborot oqimlariga nisbatan sezgirlikni oshiradi. Bunday shaxslar ijtimoiy jihatdan faolligi yuqori bo'lsa-da, ular salbiy axborotga nisbatan tanqidiy immunitetni shakllantirishda ehtiyot bo'lishlari zarur, chunki muloqotning o'zi himoya emas, balki ochiqlikni bildiradi.

2. Ichki yetuklik va barqarorlik shaxsni axborot bosimidan himoyalashda asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi. O'zini boshqara oladigan, emotsiyalarini nazorat qila oladigan shaxslar destruktiv axborotni faqat sezmaydi, balki uni ongli ravishda filtrlab, u bilan munosabatda bo'lish strategiyasini tanlaydi.

3. Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, tashqi ta'sirga bo'lgan tayanmaslik, shaxsning axborotga qaram bo'lib qolmasligiga xizmat qiladi. Mustaqil fikrga ega shaxslar salbiy axborotni rad etishga moyil bo'ladi, bu ularning psixologik mustahkamligi va tanqidiy ongini ifodalaydi.

4. Destruktiv axborotga nisbatan sezgirlik faqat shaxsning psixologik zaifligini anglatmaydi, balki ba'zida axborot oqimlarini faol qabul qiladigan, analitik fikrlovchi shaxslarning tanqidiy diqqatini ham aks ettiradi. Muhim jihati – bu

axborotga emotsional berilish emas, balki unga nisbatan ijtimoiy va psixologik pozitsiya bilan yondashidir.

Yuqoridagi umumiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi **amaliy tavsiyalarni** keltirib o'tish ham o'rinli sanaladi:

1) Destruktiv axborotning ta'sirini baholash va monitoring qilish maqsadida o'quvchilar orasida muntazam ravishda psixologik diagnostika o'tkazish. Natijalar asosida har bir o'smir uchun individual psixoprofil tuzish va himoyalovchi choralarini belgilash mumkin. Bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan psixoprofilaktika ishlarining asosini tashkil qiladi va xavf guruhidagi o'smirlarni erta aniqlash imkonini beradi.

2) Ijtimoiy tarmoqlar va media vositalaridan foydalanish bo'yicha ota-onalar, pedagoglar va o'smirlar o'rtasida uch tomonlama ochiq muloqot platformalarini tashkil etish. Bunday platformalarda barcha tomonlar destruktiv kontent tahdidi, texnologik qaramlik, shaxsiy chegaralarni himoya qilish va ijtimoiy tarmoqlarda ongli faoliyat yuritish kabi masalalarni muhokama qiladi. Ayniqsa, psixolog ishtirokidagi seminar va suhbatlar orqali ota-onalar farzandlariga qanday yordam ko'rsatish bo'yicha konkret amaliy ko'rsatmalar oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.unicef.org/adolescence/humanitarian-action?utm_source
2. Y.Zhang, L.Wang, J.J.H. Zhu, X.Wang, "Conspiracy vs science: A large-scale analysis of online discussion cascades," :2006.00765, 2020; 28 p.
3. "Psychological factors contributing to the creation and dissemination of fake news...", BMC Psychology, 2024;12:105, pp. 1-24.
4. Wang. "Doomscrolling and mental well-being in social media users: A serial mediation model", J. Community Psychology, 2023;51(4):820-837.
5. Kesner Jr et al., "Impact of Media-Induced Uncertainty on Mental Health," JMIR Mental Health, 2025; vol 12:e68640; pp. 1-20.
6. Васильева И.А., Пашенко Е.И., Петрова Н.Н., Осипова Е.М. Психологические факторы компьютерной тревожности // Вопросы психологии. – 2004. – №5. С. 62.